

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Aliyeva Zebo Akram qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

aliyevazebo08@gmail.com

MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO'RSATKICH SIFATIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069158>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mirativlik kategoriyasi chizmalar yordamida ingliz va o'zbek tillari misolida ochib berildi. Shuningdek, mirativlik kategoriyasini hosil qiluvchi morfologik birliklar, mirativlikning turlari ham ikki til doirasida badiiy adabiyotlar misolida tahlil qilindi. Maqolada mirativlik ifodalarining evidensiallik tizimi bilan grammatik aloqasi va farqli jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida emotsional undov so'zlar va yuklamalar yordamida mirativ ifodalar yasashiga har ikkala tilda ham misollar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mirativlik, grammatik ko'rsatkich, morfologik birlik, hayratlanish, undov gap, kutilmagan xabar.

Алиева Зебо Акрамовна

Докторант Самаркандского государственного института иностранных языков

aliyevazebo08@gmail.com

МИРАТИВНАЯ КАТЕГОРИЯ КАК ГРАММАТИЧЕСКИЙ ПОКАЗАТЕЛЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрыта категория миративности на примерах английского и узбекского языков. Также были проанализированы морфологические единицы, образующие категорию миративности и виды миративности на примере художественных текстов в рамках двух языков.

В статье рассматриваются грамматические аспекты связи и различия выражений миративности с эвиденциальной системой.

Также на обоих языках были приведены примеры составления веселых выражений с использованием эмоциональных восклицаний и предлогов на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: миративность, грамматический указатель, морфологическая единица, удивление, восклицательное предложение, неожиданная информация.

Aliyeva Zebo Akramovna

Doctorate of the Samarkand state institute of foreign languages

aliyevazebo08@gmail

MIRATIVE CATEGORY AS A GRAMMATICAL INDICATOR

ABSTRACT

The provided article reveals the category of mirativity on the examples of the English and Uzbek languages as well as the pictures clarifying the category of mirativity. Furthermore, morphological units that form the category of mirativity and types of mirativity were also analyzed using the example of literary texts within the framework of two languages. The article examines the grammatical connection and differences aspects of the expressions of mirativity with the evidential system. Also, in both languages, examples of how to make mirthful expressions using emotional exclamations and prepositions in Uzbek and English were given.

Key words: mirativity, grammatical marker, morphological unit, astonishment, exclamatory sentence, unexpected information.

Grammatika nafaqat soʻz yoki gap qurilishida, balki ogʻzaki va yozma nutqda gaplarni toʻgʻri qoʻllay olish uchun ham muhim vazifani bajaradi.

Mirativlik tushunchasi tipologiya faniga yaqinda kirib kelgan boʻlib (DeLancy 1997,2001), u “soʻzlovchi uchun yangi yoki kutilmagan”, hayratga soladigan maʼlumot sifatida baholanadi. Dozon (1879: 226-227) tomonidan fransuz tilida yozilgan alban tili grammatikasida birinchi marta qoʻllangan “admirative” atamasi xuddi shunday maʼnolar doirasini qamrab oladi. Shimoliy-sharqiy kavkaz tillari grammatikasida “admirative” maʼnosiga ega feʼl shakllari mavjudligi aniqlangan (Kibrik 1977). “Hayratlanish” hamda “soʻzlovchi uchun kutilmagan maʼlumot” ning ifodalari boshqa toifalarga ham, jumladan his-hayajon soʻzlar va evidensiallikning baʼzi tizimlariga ham xosdir. Delancy (1997, 2001) oʻz asarlarida mirativlik tushunchasini alohida lingvistik kategoriya sifatida kiritdi. Delancyning (2001:370) soʻzlariga koʻra, bundan oldin mirativ konstruksiyalar evidensiallikning oddiy bir tarkibi sifatida qaralgan. Hozirda mirativlik hamda evidensiallik turli xil kategoriyalar ekanligini koʻrsatish uchun yetarlicha dalillar mavjud.

Koʻpgina tillarda mirativlik ifodalari evidensiallik tizimlari bilan Grammatik aloqaga ega emas. “Mirativ” maʼnoga ega boʻlgan ifodalar evidensiallik bilan birga keladi. Ular nafaqat feʼl, balki unga modifikatsiyalashadigan boshqa birliklar yordamida turli kommunikativ vaziyatlardagi informative vositalarni namoyish etadi. Mirativlikning oʻziga xos kategoriyaviy birliklari sifatida inkor, kutilmagan xabar kabi munosabatlarda farqlanishini keltirish mumkin. Koʻplab tillarda, baʼzi evidensiallik hodisalari muayyan kontekstlarda mirativ maʼnoga ega boʻlishi mumkin va shu sababdan “mirativ strategiyalar”, degan atama bilan yuritiladi (Ayhenvald 2004: 195-216).

Mirativlik maʼnolari dunyo boʻylab bir qancha tillarda turli xil lingvistik shakllarda uchraydi. Mirativlik hodisasi grammatik asosga ega boʻlsada uning qator pragmatik ifodasi, vazifasi mavjudligi koʻzga tashlanadi. Jumladan, ushbu kategoriyaning quyidagi ifoda va vazifalarini ajratib koʻrsatish mumkin:

- I. Kutilmaganda xabardor boʻlish
- II. Ajablanish, hayratlanish
- III. Yangi maʼlumotga tayyor boʻlmagan ong
- IV. Kontrekspektatsiya (kutilmagan natija olish, qarshi kutish)
- V. Yangi maʼlumot

Misol uchun, Magar tili lingvistik hodisalarini targʻib etgan Delancey taʼkidlashicha, mirativlik shaxsning oʻzi haqidagi hayratlanarli maʼlumotni aytganda foydalanilmaydi, balki tinglovchi uchungina ajablanarli boʻlgan voqea-hodisa mirativlik hodisasi uchun naʼmuna boʻla oladi. Masalan Magar tilida birinchi shaxs soʻzlovchi ajablanarli hodisani anglab yetsa, bu mirativlik emas shunchaki his-hayajon gap sanaladi:

Masalan: Na-I i-din-ca sya na-jya-o

(I realize to my surprise that) “Apparently I have eaten this type of meat!”

Yuqoridagi namunada bir kishi boʻsh likopchasiga qaraydi va unda nima borligini bilib, taqiqlangan goʻsht istemol qilganini anglaydi va bu Magar tilida his-hayajon gap hisoblanadi. (Delancey, 2001; 146)

Boshqa bir olim E.Kunig esa mirativlik kategoriyasi !Xun tilida ritorik soʻroq hamda darak gaplarda uchrashi mumkinligini qayd etadi. Biroq evidensiallik hodisasi soʻroq gaplarda uchramaydi.

Olim Ko'nigning ta'kidlashicha !Xun tilida evidensiallik faqatgina so'zlovchiga aloqador bo'ladi, mirativlikda esa berilayotgan ma'lumot so'zlovchiga ham tinglovchiga ham kutilmagan yangilik sanaladi (Kunig E, 2003).

Ta'kidlash joizki, mirativlik ham grammatik kategoriya sifatida aksariyat hollarda fe'llar yordamida ifodalanadi. Mirativlikning grammatik ko'rsatkichi barcha tillarga xos hodisa sanalmaydi. Ammo mirativ ma'nolar ifodalashning barcha tillarda leksik, semantik, leksik-grammatik tarzda faollashadi.

Grammatik ko'rsatkich bu so'z, fraza yoki gapning grammatik vazifasini namoyon qiluvchi erkin yoki bog'langan morfemadir. Misol uchun otning ko'rsatkichlari deb ko'plik va kelishik qo'shimchalarini aytishimiz mumkin. Fe'ning ko'rsatkichlari deb zamon qo'shimchalari va yuklamalarni aytishimiz mumkin. Barcha tillardagi grammatik ko'rsatkichlar boshqa tillardan farqlanib turuvchi xususiyat hisoblanib, ular og'zaki va yozma nutqda yetkazilayotgan ma'lumotning muhim bo'lagi sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida grammatik ko'rsatkichlar sifatida -s, -es, -ing, -d, -ed, will kabi zamon va aspekt birliklari hamda can't, ain't, didn't kabi inkor ko'makchilari yordamida qo'llanadi. Mazkur ko'rsatkichlar aspekt hamda zamon ko'rsatkichlari bo'lish bilan bir qatorda, fe'llar anglatayotgan evidensial hodisalarning shakllari sifatida ham tan olinadi. Chunki, ushbu zamon va aspekt qo'shimchalari ma'lumotning vaqti hamda kechish jarayonini yoritish uchun xizmat qiladi.

Mirativlik bu – grammatik mayl bo'lib, kutilmagan yohud umuman yangi bo'lgan xabarga nisbatan kishilarning hayrati va ajablanishi kabi holatlarni ifodalashda pragmatik jihatdan namoyon bo'ladi. Quyidagi chizmada mirativlikni ko'rishimiz mumkin:



Mirativlik ba'zi tillarda grammatik kategoriya bo'lib, kishilarning ongi tayyor bo'lmagan holatida avval eshitilmagan yoki ko'rilmagan xabarga nisbatan nutqdagi ajablanishni alohida aks ettiruvchi vositalarga nisbatan qo'llaniladi. Mirativ ma'no birinchi shaxsning bevosita qatnashishi orqali aniqlangani bois, ikkinchi shaxs uchun kutilmagan ma'lumot yuzaga kelganda ko'pincha og'zaki nutqda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi How terribly this deadly husband is eating!. Keltirilgan jumladagi how so'roq so'zi va terribly ravishi aynan mirativlikni ifodalaydi.

Ko'p hollarda mirativlik hodisasi ingliz tilida hozirgi tugallangan zamon "hot news" tarzida aks ettirilishi mumkin. Masalan, The Eagles have won! gapida ayni hozirgina sodir bo'lgan va so'zlovchining kutilmagan yangilikdan his-hayajoni ifodalangan. Binnik (1991: 99) ning ta'biri bilan aytganda, "hot news" shunchaki yangilikni yetkazish shakli emas balki, tinglovchiga so'zlovchi tomonidan kutilmagan yangilikni yetkazish hamda tinglovchi tomonidan hayratni ifodalaydi. Olimning fikricha, yangilikning so'ngiligi emas balki uning kutilmaganligi nutqda muhimroqdir (Binnik, 1991: 99).

Bundan tashqari, mirativlik eshitish yoki ko'rish orqali yangi bilimga ega bo'lganda his-hayajon va ajablanish orqali ham nutqda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida Sen haqiqiy ovchi ekansan-ku! (S.Ahmad.Jimjitlik; 66) Ushbu jumladagi -ku yuklamasi mirativlikning morfologik birligi hisoblanadi.

Mirativlik biror kimsaning ayrim vaziyatga ko'ra, o'zi kutmagan narsadan xabardor bo'ladigan ma'nolarini qamrab olishda yuzaga keladi. Mazkur izohga boshqa bir shaxs birinchi

shaxsga yuzlanib, o'zbek tilida Bo'ying o'sib qolibdimi?! deganda ingliz tilidagi I see you've already grown up!. O'zbek tilida keltirilgan -mi so'roq yuklamasi va ingliz tilidagi I see kirish so'zlari mirativlikni ifodalaydi.

Mirativlik kategoriyasi ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda yohud subyektning ma'lum voqea asosida o'z fikrini bayon qilishi jarayonida ham yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida You are weak, as it turns out! (P.Hawkins; 49) Ingliz tilida keltirilgan jumladagi as it turns out birikmasi aynan mirativlikni hosil qilayapdi. Chunki, unda so'zlovchi avval bilmaganini sodir bo'layotgan voqea-hodisa asosida nutqida namoyon qilmoqda.

O'zbek tilida esa quyidagi misolni tahlili qilib ko'rishimiz mumkin: -Yangi mehmon ko'rdim! -Iya, iya qutlug' bo'lsin! O'g'ilmi?! (X. To'xtaboyev. Sehrli qalpoqcha, 66) Yaxshiboyevday qarchig'ay ham qarigan chog'ida musicha bo'pti-ku! (M. Do'st. Lolazor; 27). Mazkur jumladagi -iya-iya taqlid so'zlari hamda -mi, -ku kabi yuklamalar aynan mirativlikning morfologik ko'rsatkichi sanaladi.

Aksariyat hollarda mirativlik kategoriyasi buyruq gaplarda yoki birinchi shaxsning boshqa shaxslarga ma'lumot yetkazishida ham uchrashi mumkin. Masalan, o'zbek tilida Suyunchi bering! Sigirimiz tug'di! Qaranglar, Nozima kelayapdi! (O. Hoshimov. Ajdarning tavbasi, 7)

Garchi keltirilgan gaplarda morfologik birliklar ya'ni yuklamalar bo'lmasa-da, ular his-hayajon va buyruq maylidagi gaplar bo'lgani sabab ham mirativlikni ifodalaydi. Ingliz tilida esa, mirativlik so'zlovchining ham leksik ham grammatik strategiyalarini kutilmagan voqea-hodisaga nisbatn hayrati va his-hayajonini ham ko'zi bilan ko'rib turib, suyunganidan ishonolmay aytib yuborgan fikrini ifodalashda namoyon bo'ladi. Misol uchun, Wow, it is raining! No way, it's raining! I can't believe it's raining! I see it is raining! It looks like it's raining! Look at all this rain! kabilarni keltirishimiz mumkin. Mazkur jumladan ko'rinib turibdiki, ushbu yomg'ir yog'ishi kabi holat ilk marta sodir bo'lmoqda. Demak, avvalari bu kabi yomg'ir u tomonlarda umuman kuzatilmagan.

Bundan tashqari, mirativlik kategoriyasi so'roq gaplar tarkibida ham uchrashi mumkin: Are you a man? Have you a soul or sense? (W.Shakespeare. Othello; 78) Where did this almost unlimited force originated? (J.Verne. 2000 Leagues under the sea; 94) Esingni yedingmi? Hazillashayapsan-a?! (H.Nazir. Ko'kterak shabadasi; 49) kabi kinoyali so'roq gaplar ham mirativlikni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilida keltirilgan jumladagi are, have, did kabi ko'makchi so'zlar hamda o'zbek tilidagi -mi, -a kabi yuklamalar ham mirativlikni hosil qiluvchi morfologik ko'rsatkichlar sanaladi. Chunki, aynan mazkur ko'makchi va yuklamalar orqali kishining hayratlanishi va ajablanishi aks etmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mirativlik lingvistik kategoriya bo'lib, biror kimsaning kutilmagan yoki yangi sodir bo'layotgan voqea-hodisaga nisbatan kishining his-hayajonli ajablanishini hamda hayratlanishini namoyon qilishda paydo bo'ladi. Shuningdek, mirativlik grammatik kategoriya sifatida fizik masofani ham ifodalashda ishlatilishi mumkin. Zero, u shaxsning ma'lum voqea-hodisaga nisbatan shaxsning bevosita kuzatuvi natijasida yuzaga kelgan ish-harakatni kutilmagan hayrat sifatida ko'p hollarda og'zaki nutqda paydo bo'ladi.

Aksu-Ko(1988,1994,2000) va Aksu-Kat, Slobin (1986) larning izlanishlariga ko'ra turk tilidagi "mis," qo'shimchasi o'tgan zamonda sodir bo'lgan, so'zlovchi bevosita o'zi guvohi bo'lmagan ish-harakatlar haqida gapirganda ishlatiladi hamda so'zlovchi voqea-hodisadan tashqi ta'sir yordamida xabardor bo'ladi.

Johanson (2000: 82-83; 2006: 83) ning fikriga ko'ra esa, "mis," qo'shimchasining ajablanish, kutilmagan yangilik ma'nolarini berishi uning asl ma'nosi emas, balki qo'shimcha ma'nolaridan biridir. O'zbek tilida ham o'tgan zamon ma'nosini anglatadigan to'liqsiz fe'l hisoblanadigan "emish" fe'li, so'zlovchining voqea-hodisadan xabardor emasligini va boshqa shaxs tomonidan xabardor bo'lganligiga ishora qiladi. O'zbek tilida ham "–mish" qo'shimchasi reportativ mish-mish kabi evidensiallikni anglatishi mumkin.

Masalan: "–Zirillamada hammaning og'zida sen. Kattakon surupga ishlangan suratingni klub tepasiga ilib qo'yishibdi. Tog'aning gapiga qaraganda, shunaqa surating Shahrixonda, Qo'qon-u Quvada ko'chalarga ilingan emish." (Asqad Muxtor, "Chinor", 183-bet).

Biroq o'zbek tilida “emish” ko'makchi fe'li har doim ham mirativ ma'no kasb etmaydi, balki u ishtirok etgan gap kontekstdan hayratlanish, ajablanishni anglatishi mumkin.

Misol uchun:

“ “Osmondagi oy” emish?!... Oyni nima qilaman... Kimman o'zi? Nega odamlarga azob berishim kerak? Nima haqqim bor?” (O'tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, 11-bet)

O'zbek tilida ham ingliz tilida ham undov gaplar odatda mirativ ma'noga ega bo'ladi:

Masalan:

“Look, how much your grandchild has grown up!”

“Vuy, bu manzaraning go'zalligini qarang!”

Ingliz tilida “wh-“ yordamida yasaladigan ergash gapli qo'shma gaplarda, kontekstdan kelib chiqib, berilgan gapning o'qilish intonatsiyasi va undov belgilariga qarab uning ergash gapli so'roq gap yoki mirativ ma'noga ega undov gap ekanligi aniqlanadi. Misol uchun, Alisa oshxonada ovqat tayyorlayotgan edi, to'satdan eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Shu holatda Alisa qiziga ikki xil intonatsiyada xitob qilishi mumkin:

a. 'Look, who has come?' (interrogative)

b. 'Look, who has come!' (exclamative)

Yuqoridagi ikkala gap ham bir xil ko'rinishga ega gaplar lekin, undov so'zlarning ishlatilishiga qarab gaplarning aytilish ohanggi o'zgaradi va birinchi gap “wh-“ yordamida yasalgan ergash gapli so'roq gap, ikkinchisi esa, mirativ ifodaga ega his-hayajon gap.

O'zbek tilida ham mirativ ifoda gapda so'roq elementlari, so'roq olmoshlari bo'lmagan holatda, kontekstdan kelib chiqib, so'roq intonatsiyasining o'zi bilan yasaladi. Masalan: “U bolasini turtib uyg'otdi.”yer qimirlayabdi!”-“yer qimirlayabdi?”-uyquli ko'zlarini ishqalab hayajon bilan so'radi bola. Mirativ ifodali so'roq gapning bu turi, odatda, biror kutilmagan xabar eshitilganda, taajjubni ifodalash uchun xizmat qiladi, o'sha xabarni anglatgan his-hayajon gapni takrorlash va intonatsiya orqali uni so'roq gapga aylantirish bo'yoqdorlikni oshirib, ma'lumotning tinglovchi uchun kutilmagan holatligini ko'rsatadi.

Mirativlik asosan hayajon va ajablanishni ifoda etadigan kategoriya bo'lishiga qaramasdan, u xuddi shuningdek, kesatish, shubhalanish, xabar berish kabi ma'nolarni ham ko'rsatadi. Bunda mirativ gap o'tmishda yoki hozirgi zamonda sodir bo'lgan voqea-hodisaga so'zlovchining ishonqiramaslik, tasdiqlamaslik kabi ma'nolarni yetkazganida ishlatiladi. Shuningdek, mirativlikning ajablanish ma'nosi ham biror bir kutilmagan voqea-hodisaga so'zlovchining hayratini ifodalaydi. Yuqorida ko'rsatilganidek, har ikkala ma'no ifodasi ham voqea-hodisaning so'zlovchi uchun yangi va kutilmagan ekanligini ko'rsatadi.

Masalan:

-There was a mystery here. How could electricity set the propeller in motion with such power! Where did this almost unlimited force originated?

(“Twenty thousand leagues under the sea” by Jules Verne. 94-bet)

Keltirilgan namunada so'zlovchining voqea-hodisaga nisbatan ishonqiramasligi mirativlik hodisasi orqali ko'rsatilgan.

-Iye, kimni ko'ryabmiz?! Janobi oliylari kelibdilar-da!

Ushbu o'zbek tilidagi namunada esa so'zlovchi kesatish mazmunida o'z hayratini bildiriyabdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faller M. T. Semantics and pragmatics of evidentials in Cuzco Quechua. – University of Manchester: 2001. – 134 p.
2. Hojiyev A. Fe'l. – O'zbekiston fan nashriyoti, Toshkent 1973. – 190 b.
3. Johanson L., Utas B. Evidentials: Turkic, Iranian and neighbouring languages. – Berlin Germany: 2000. – 238 p.
4. Lancey S. The semantics and pragmatics of mirativity: a constructional account. – Mouton de Gruyter: 1997. – P 33-52.

5. Lazard G. Mirativity, Evidentiality, Mediativity and other. *Linguistic typology*. – Mouton de Gruyter: 1999. – 212 p.
6. Peterson T. Mirativity in Morphology. – *Actrefore.com*.2020. – 113 p.
7. Xamrayeva M. Ingliz va o‘zbek tillarida evidensiallikning kognitiv va pragmatik tahlil (sezgi fe’llari misolida) PhD dissertatsiyasi, SamDChTi 2022. - 158 b.
8. <https://uz.m.wikipedia.org>
9. Aikhenvald A. *Evidentiality* (Linguistiss) – Oxford University Press: 2004. – P 196.
10. Peterson T. Rethinking mirativity // *semantissarshieve.net*. pdf – 2011. – P 202.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000